



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadrlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

**O‘ZBEKISTONDA AHOLINING DAROMADLARI VA ISTE’MOL XARAJATLARINING
BIZNES RIVOJLANISHIGA TA’SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ И ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ РАСХОДОВ В
УЗБЕКИСТАНЕ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА**

**THE IMPACT OF HOUSEHOLD INCOMES AND CONSUMER EXPENDITURES IN
UZBEKISTAN ON BUSINESS DEVELOPMENT**

Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna
Andijon davlat texnika instituti, katta o‘qituvchi
Nematjonova Risolatxon Dilshod qizi
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2- kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada aholi daromadlari va iste’mol xarajatlarining iqtisodiy o‘shish hamda biznes faoliyatiga ta’siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Aholi daromadlarining oshishi ichki talabni kengaytirishi, iste’mol bozorini faollashtirishi va tadbirkorlik subyektlari rivojiga turtki berishi asoslab berilgan. Turmush darajasi, kambag‘allik va iste’mol savatchasi tushunchalarining mazmuni ochib berilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aholi daromadlari, iste’mol xarajatlari, turmush darajasi, kambag‘allik, ichki talab, xizmatlar sektori, biznes rivoji, iqtisodiy o‘shish, raqamli iqtisodiyot.

В статье проведён научно-теоретический и практический анализ влияния доходов населения и потребительских расходов на экономический рост и деловую активность. Обосновано, что рост доходов населения способствует расширению внутреннего спроса, активизации потребительского рынка и развитию предпринимательской деятельности. Раскрыто содержание понятий уровня жизни, бедности и потребительской корзины, а также показано их социально-экономическое значение.

Ключевые слова: доходы населения, потребительские расходы, уровень жизни, бедность, внутренний спрос, сектор услуг, развитие бизнеса, экономический рост, цифровая экономика.

The article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the impact of population incomes and consumer expenditures on economic growth and business activity. It substantiates that the growth of household incomes leads to the expansion of domestic demand, activation of the consumer market, and stimulation of entrepreneurial development. The concepts of living standards, poverty, and the consumer basket are examined, and their socio-economic significance is highlighted.

Keywords: population incomes, consumer expenditures, living standards, poverty, domestic demand, service sector, business development, economic growth, digital economy.

Hozirgi kunda aholi daromadlari iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri bo‘lib, ularning o‘shishi bevosita iste’mol bozorining kengayishiga, ichki talabning ortishiga va natijada biznes faoliyatining faollashuviga olib kelmoqda. Iste’mol xarajatlari iqtisodiy tizimning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ishlab chiqarish hajmini, xizmat ko‘rsatish sohasini, tadbirkorlik subyektlari tushumlarini va investitsion imkoniyatlarni kengaytiradi. Daromadlarning oshishi korxonalarda ishlab chiqarishni ko‘paytirishga, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilishga, yangi xizmatlar yaratishga va biznes jarayonlarining modernizatsiyasiga turtki bo‘ladi.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasida: “...barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob

beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash” belgilangan [1].

“O‘zbekiston Respublikasi uchun qashshoqlik chizig‘i – kuniga 3,2 dollardan kam pulga yashash degani, misol uchun besh kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollar yoki 4,6 million so‘mdan kam bo‘lsa, bu oilani kambag‘al deb hisoblash mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimizda 46 turdagi mahsulot va birlamchi xizmatlar kiritilgan iste‘mol savatchasi 650 ming so‘m, hayot kechirishning eng quyi darajasi 810 ming so‘m atrofida hisoblab chiqilgan” [2]. Biroq, iste‘mol savatchasi yosh, jins, mavsumiylik nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Bu tushunchaga yanada aniqlik kiritish maqsadida ifodalash mumkinki, turmush darajasi tor ma’noda aholining iste‘mol ehtiyojlari qondirilganligi, iste‘molning daromad va xarajatlar bilan ta’minlanishini, keng ma’noda insonni rivojlanishi darajasini (sog‘liq, ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari) va uning yashash shart sharoitlarini (atrof-muhit, xavfsizlik masalalari) anglatadi.

Shu o‘rinda e’tirof etish kerakki, aholi turmush darajasining pasayib ketishi kambag‘allikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida yuzaga chiqadi. Kambag‘allik darajasi mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarida va aholining turmush tarzida ifodalanib, ijtimoiy masala sifatida deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda namoyon bo‘ladi.


Turmush darajasining asosiy ko‘rsatkichlari (indikatorlari) aholi daromadlari bo‘lib, akademik, Q.X.Abdurahmonov “turmush darajasi” tushunchasining mazmunini iste‘mol sohasi bilan cheklaydigan mualliflar nuqtai-nazarini to‘g‘ri deb hisoblaydi. Uning fikricha, turmush darajasi deganda, aholining zarur moddiy va nomoddiy ne‘matlar va xizmatlar bilan ta’minlanish darajasi, ularni iste‘mol qilish darajasi tushuniladi. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlarga qo‘shilgan holda, quyidagi mualliflik ta’rifini ilgari suramiz: aholi daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida, yangidan yaratilgan qiymatni o‘zlashtirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda bevosita xo‘jalik yurituvchi subyekt, davlat o‘rtasida vujudga keluvchi umumiy munosabatlarni ifodalaydi [3].

Jahon amaliyotida aholining turmush darajasi va turmush sifatini baholash uchun ularning daromadlari miqdoridan foydalaniladi. Ushbu daromadlar yoki joriy xarajatlarni qoplash, yoxud pul mablag‘larini jamg‘arish uchun ishlatiladi. Joriy xarajatlarga oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy, kommunal xizmatlar, uy jihozlari, sog‘liqni saqlash, transport, aloqa, ta’lim, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, dam olish va sayyohlik, boshqa xizmatlar va ne‘matlar uchun xarajatlar kiradi.

Aholining jamg‘armalari daromadlar va joriy xarajatlar o‘rtasidagi farqdan iborat hamda sifat o‘zgarishlarini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda uning tarkibiy qismlarini aniqlash ham uslubiy, ham amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi, turmush farovonligi va daromadlar darajasi mutanosibligi quyidagi rasmda umumlashtirilgan (1-rasm)

Aholi daromad bazasini kengaytirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Mehnat bozori siyosati, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, kapital daromadlarini oshirish, ijtimoiy himoya tizimi, mintaqaviy rivojlanish, migratsiya siyosati va innovatsion transformatsiya ushbu jarayonning asosiy tarkibiy qismlaridir. Ushbu yo‘nalishlarda izchil siyosat olib borish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi farovonligining oshishi uchun muhim shartdir.

O‘zbekiston iqtisodiyotida iste‘mol xarajatlarining tarkibini sog‘lomashtirish nafaqat aholi farovonligini oshirish, balki iqtisodiy o‘sish sifatini yaxshilash va xizmatlar sektorini rivojlantirish uchun muhim strategik vazifadir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlarda kompleks choralar ko‘rish zarur. Oziq-ovqat xarajatlarini optimallashtirish va sifatini oshirish birinchi navbatda mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqarishni rag‘batlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalariga yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlov choralari nafaqat import qaramligini kamaytiradi, balki iste‘molchilarga arzon va sifatli mahsulotlar taklif qilish imkonini beradi. Sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha ommaviy axborot kampaniyalari esa aholi ongida sifatli ovqatlanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Turmush farovonligi va daromadlar darajasi mutanosibligi

Xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish iste'mol tarkibini yaxshilashning kalit yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda onlayn ta'lim platformalari va kasb-hunar ta'limini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Sog'liqni saqlash sohasida xususiy klinikalar tarmog'ini rivojlantirish va sug'urta tibbiyotini joriy etish bemorlarning xizmat sifatidan qoniqish darajasini oshiradi. Turizm va dam olish xizmatlarini rivojlantirish esa nafaqat ichki iste'molni rag'batlantirish, balki valyuta tushumlarini oshirish imkoniyatini ham yaratadi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish zamonaviy iste'mol tarkibini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Onlayn xizmatlar, kontent industriyasi va smart-shahar loyihalari orqali nafaqat iste'mol qulayligi oshadi, balki yangi biznes modellari ham paydo bo'ladi. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.

Uzoq muddatli tovarlar bozorini rivojlantirish aholining investitsion qobiliyatini oshirish bilan bog'liq. Maishiy texnika, avtomobilsozlik va ko'chmas mulk bozorlarini rivojlantirish orqali aholining uzoq muddatli investitsiyalarga bo'lgan talabini qondirish mumkin. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va to'lovga sotish imkoniyatlarini kengaytirish bu sohalardagi iste'molni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish va iste'molni integratsiya qilish import o'rnini bosish va mahalliy tovarlarni rag'batlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish esa iste'mol tarkibining yuqori texnologiyali mahsulotlar tomonga siljishini ta'minlaydi. Bu nafaqat ishlab chiqarishni rivojlantirish, balki iste'molchilarga sifatli mahalliy mahsulotlar taklif qilish imkonini beradi.

Iste'mol madaniyatini shakllantirish ma'lumotlangan iste'molchi dasturlari, ekologik iste'molni rag'batlantirish va ijtimoiy mas'uliyatli biznes amaliyotlarini joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu nafaqat iste'mol sifatini oshiradi, balki barqaror rivojlanishga ham hissa qo'shadi. Davlat siyosati va tartibga solish xizmatlar sektorini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Soliq imtiyozlari, xalqaro standartlarni joriy etish va infratuzilma investitsiyalari biznes muhitini yaxshilashga va iste'mol tarkibini sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida aholi daromadlari va iste‘mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta‘sirini samarali boshqarish uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarda izchil siyosat olib borish zarur:

1. Aholi daromadlarining barqaror o‘shirishini ta‘minlash uchun mehnat bozori siyosatini isloh qilish, kichik biznes va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, kapital daromadlarini oshirish, ijtimoiy transfertlarni optimallashtirish, hududlar darajasida daromadlar farqini kamaytirish, mehnat migratsiyasidan samarali foydalanish va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish.

2. Iste‘mol xarajatlarining tarkibini sog‘lomlashtirish uchun oziq-ovqat xarajatlarini optimallashtirish va sifatni oshirish, xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, uzoq muddatli tovarlar bozorini rivojlantirish, ishlab chiqarish va iste‘molni integratsiya qilish, iste‘mol madaniyatini shakllantirish va davlat siyosati va tartibga solishni takomillashtirish.

Iste‘mol xarajatlarining tarkibini sog‘lomlashtirish va xizmatlar sektorini kengaytirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu choralar nafaqat iste‘mol tarkibini yaxshilash, balki iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘shirish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun davlat, biznes va jamiyatning uyg‘un hamkorligi, shuningdek izchil va uzoq muddatli siyosat olib borish zarur.

O‘zbekiston iqtisodiy kontekstida aholi daromadlari va iste‘mol xarajatlarining o‘zgaruvchan dinamikasi yangi biznes modellari va strategiyalarni talab qilmoqda. Quyidagi amaliy takliflar orqali mavjud biznes modellarini takomillashtirish va yangi imkoniyatlardan samarali foydalanish mumkin. Maqsadli bozor sementatsiyasi va shaxsiylashtirilgan takliflar aholi daromadlaridagi differentsiatsiyani hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Turli daromad guruhlari uchun maxsus biznes modellarini yaratish — yuqori daromadli segment uchun premium xizmatlar, o‘rta daromadli guruh uchun sifat va narx muvozanatiga asoslangan takliflar, kam daromadli aholi uchun esa arzonlashtirilgan modellar va mikroreditlash imkoniyatlari — biznesning ijtimoiy mas‘uliyatini namoyon etadi va bozorni kengaytiradi.

Ushbu choralar kompleksi amalga oshirilganda, O‘zbekiston iqtisodiyotida aholi daromadlari va iste‘mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ijobiy ta‘siri kuchayadi, ichki bozor kengayadi, iqtisodiy o‘shirish sifat jihatdan yaxshilanadi va aholi farovonligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti DUK, 2021.
3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. – Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Aholi umumiy daromadlari (statistik to‘plam). – Toshkent, 2018-2025 yillar hisobotlari.